



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI**

BUYRUQ

2023-yil “3” fevral

1 - sonli

Nukus shahri

**O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil
31-yanvardagi 19-sonli buyrug'ining ijrosini ta'minlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi “Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-269-sonli, 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-14-sonli Farmonlarining ijrosini ta'minlash hamda ma'muriy islohotlar doirasida vazirlik faoliyati samaradorligi va natijadorligini oshirish, vazirlik rahbariyati o'rtasida aniq vazifalar va funksiyalarni taqsimlash, shuningdek, vazirlik va tuman bo'limlarning xodimlar sonini maqbullashtirish maqsadida

BUYURAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi “Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-269-sonli, 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-14-sonli Farmonlari hamda O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 31-yanvardagi 19-sonli buyrug'i rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.
2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi to'g'risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;
3. To'rtko'l tumani Qishloq xo'jaligi bo'limi to'g'risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq;
4. Beruniy tumani Qishloq xo'jaligi bo'limi to'g'risidagi nizom 3-ilovaga muvofiq;
5. Ellikqal'a tumani Qishloq xo'jaligi bo'limi to'g'risidagi nizom 4-ilovaga muvofiq;
6. Amudaryo tumani Qishloq xo'jaligi bo'limi to'g'risidagi nizom 5-ilovaga muvofiq;

7. Taxiatosh tumani Qishloq xo'jaligi bo'limi to'g'risidagi nizom 6-ilovaga muvofiq;

8. Xo'jayli tumani Qishloq xo'jaligi bo'limi to'g'risidagi nizom 7-ilovaga muvofiq;

9. Sho'manoy tumani Qishloq xo'jaligi bo'limi to'g'risidagi nizom 8-ilovaga muvofiq;

10. Qonliko'l tumani Qishloq xo'jaligi bo'limi to'g'risidagi nizom 9-ilovaga muvofiq;

11. Qo'ng'iro't tumani Qishloq xo'jaligi bo'limi to'g'risidagi nizom 10-ilovaga muvofiq;

12. Mo'ynoq tumani Qishloq xo'jaligi bo'limi to'g'risidagi nizom 11-ilovaga muvofiq;

13. Nukus tumani Qishloq xo'jaligi bo'limi to'g'risidagi nizom 12-ilovaga muvofiq;

14. Kegeyli tumani Qishloq xo'jaligi bo'limi to'g'risidagi nizom 13-ilovaga muvofiq;

15. Bo'zatov tumani Qishloq xo'jaligi bo'limi to'g'risidagi nizom 14-ilovaga muvofiq;

16. Chimboy tumani Qishloq xo'jaligi bo'limi to'g'risidagi nizom 15-ilovaga muvofiq;

17. Qorao'zak tumani Qishloq xo'jaligi bo'limi to'g'risidagi nizom 16-ilovaga muvofiq;

18. Taxtako'pir tumani Qishloq xo'jaligi bo'limi to'g'risidagi nizom 17-ilovaga muvofiq;

19. Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi apparatining tuzulmasi 18-ilovaga va xodimlarning cheklangan soni 18a-ilovaga muvofiq;

20. Tumanlar qishloq xo'jaligi bo'limlarining tuzilmasi 19-ilovaga va xodimlarning cheklangan soni 19a-ilovaga muvofiq muvofiq;

21. Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi Hay'at tarkibi 20-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

22. Vazirning barcha o'rinbosarlari, vazirlik apparati tarkibiy xodimlari, tuman qishloq xo'jaligi bo'limlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi to'g'risidagi nizomda belgilangan vazifa va funksiyalariga og'ishmay rioya etilishini ta'minlansin.

23. Barcha tuman qishloq xo'jaligi bo'limi boshliqlari, vazirlikning xodimlar bilan ishlash bo'yicha bosh mutaxassisi v.v.b (J.Madraimov), vazirlikning bosh yuriskonsulti (K.Ote'pov) hamda vazirlikning bosh hisobchisi (A.Genjebaev) bilan birgalikda;

ikki kuni muddatda shtat birliklari soni qisqarishi va nomi o'zgarishi munosabati bilan xodimlarning mehnat shartnomasi ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilinishi yuzasidan vazirlikning kasaba uyshmasi raisi (M.Kurbaniyazov)ning oldindan roziligini olish, vazirlik apparati va tumanlar qishloq xo'jaligi bo'limlarining **barcha xodimlari** (*Texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar ham*) bilan tuzilgan mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusi bilan kelgusida bekor qilinishi yuzasidan ogohlantirish berilishini hamda

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi, Badlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Kasaba uyshmasi qo‘mitasi va tuman bo‘limlariga xabardor qilinishni ta‘minlasinlar;

24. Vazirlikning xodimlar bilan ishlash bo‘yicha bosh mutaxassisi v.v.b (J.Madramimov) va Vazirlikning kasaba uyshmasi raisi (M.Kurbaniyazov) bilan birgalikda shtat birliklari qisqartirilayotgan xodimlarni ish bilan ta‘minlashga ko‘maklashish choralarini ko‘rsinlar.

25. Vazirlikning xodimlar bilan ishlash bo‘yicha bosh mutaxassisi v.v.b (J.Madramimov) va vazirlikning bosh yuriskonsulti (K.Otepov) bilan birgalikda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi to‘g‘risidagi nizomiga asosan vazirlik apparati hamda tuman bo‘limlarining barcha xodimlarining lavozim yo‘riqnomalarini **o‘n kun muddatda** tasdiqlatsin.

26. Vazirlikning matbuot xizmati bosh mutaxassisi (L.Kulmuratova) mazkur buyruqning mazmun-mohiyati hamda maqsad va vazifalarining ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini ta‘minlasin.

27. Oldingi qabul qilingan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining apparati hamda tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limlari to‘g‘risida qabul qilingan buyruqlari o‘z kuchini yo‘qatgan deb hisoblansin.

28. Mazkur buyruq ijrosining nazoratini o‘z zimnamda qoldiraman.

V a z i r



Z.Ziyadullayev

Kiritildi:

Xodimlar bilan ishlash bo'yicha
bosh mutaxassis v.v.b

J.Madraimov

Kelishildi:

Vazirning birinchi
o'rinbosari

F.Nurmuhhammadov

Vazir o'rinbosari

E.Edenbaev

Vazir o'rinbosari

Q.Bekbergenov

Bosh yuriskonsult

K.Oteпов

Bosh hisobchi

A.Genjebaev

Buyruq bilan tanishdim

D. Kazarov

Buyruq bilan tanishdim

A. Lyudskov

Buyruq bilan tanishdim

K. Kypchigov

Buyruq bilan tanishdim

A. Kuyugov

Buyruq bilan tanishdim

K. Saigylov

Buyruq bilan tanishdim

H. Ananov

Buyruq bilan tanishdim

L. Kelmuratova

Buyruq bilan tanishdim

U. Karimov

Buyruq bilan tanishdim

U. Myrzayev

Buyruq bilan tanishdim

Y. Kurnimjaev

Buyruq bilan tanishdim

Sh. Davlatov

Buyruq bilan tanishdim

H. Ananov